



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 9-sinflar uchun
ona tili fanidan II chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf ona tili fanidan II chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	“Sun’iy intellekt” matni ustida ishlash	1		
2.	Nutqdagi g‘alizlik	1		
3.	Munozara	1		
4.	“Prompt nima va u nega kerak?” matnini ustida ishlash.	1		
5.	“Kosmosga mitti sun’iy yo‘ldosh uchirgan o‘zbek yigiti hikoyasi” matni ustida ishlash.	1		
6.	Fe’lning vazifa shakllari : harakatnomi va sifatdosh	1		
7.	Fe’lning vazifa shakllari: ravishdosh va sof fe'l	1		
8.	“Dronlar davri” matni ustida ishlash Gap bo‘laklari Gap bo‘laklari tahlili	1		
9.	Gap bo‘laklari	1		
10.	Gap bo‘laklari tahlili	1		
11.	“So‘nggi 50 yildagi kasblar taraqqiyoti” matni ustida ishlash.	1		
12.	4-nazorat ishi	1		
13.	Eskirgan so‘zlar. Lug‘atlardan foydalanish	1		
14.	“Ommaviy axborot vositalari taraqqiyoti” matni ustida ishlash.	1		
15.	Mayl shakllari	1		
16.	“Kasbim - faxrim” audiomatnini tinglash va topshiriqlarni bajarish	1		
17.	Qo‘shma gaplar tasnifi	1		
18.	Muammo-yechim essesi	1		
19.	Infografika. Topshiriqlarni bajarish Infografika. Topshiriqlarni bajarish	1		
20.	5-nazorat ishi	1		
21.	Xato va kamchiliklar ustida ishlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Sun’iy intellekt” matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: eshitilgan yoki o‘qilgan matnlardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi: doimiy ravishda mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

SUN’IY INTELLEKT

Sun’iy intellekt (SI) bu - kompyuterlar va maxsus dasturlar yordamida inson aqliga xos vazifalarni bajaruvchi texnologiya. Bejizga “intellekt” deyilmaydi, zero u bir vaqtning o‘zida katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘rganib xulosa chiqarish, muloqot qilish, masalalarni hal etish va ijod qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. U mashinali o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuterda ko‘rish kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda SI hayotimizning deyarli barcha jabhalarida, ya’ni ta’lim, tibbiyot, transport, ijodkorlik va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda.

Sun’iy intellekt hayotimizni qulaylashtiruvchi turli xizmatlarni taqdim etmoqda:

1. Ma’lum otlarni tahlil qilish. SI katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilib, natijalar asosida foydali xulosalar chiqaradi. Bu texnologiya ilmiy tadqiqotlar, moliyaviy

operatsiyalar, iqlim o'zgarishlarini bashorat qilish kabi murakkab vazifalarda keng qo'llanadi.

2. Sog'liqni saqlashda yordam. SI shifokorlarga kasalliklarni aniqlashda va davolash rejalarini tuzishda ko'maklashadi. Masalan, tibbiy tasvirlardan foydalangan holda SI saratoni erta bosqichlarda aniqlash imkonini beradi.

3. Virtual yordamchilar. "Siri", "Alexa" va "Google Assistant" kabi sun'iy idrok tizimlari insonning ovozli so'rovlariga javob berib, vazifalarni bajarishda yordam beradi. Masalan, jadval tuzish, eslatmalarni tashkil qilish yoki qidiruv natijalarini taqdim etish kabi xizmatlar shular jumlasidandir.

4. Ijodkorlik va dizayn. SI ijodkorlik sohasida ham keng imkoniyatlar ochmoqda. "MidJourney" yoki "DALLE" kabi vositalar foydalanuvchining tasavurlarini tasvirga aylantirishga yordam beradi. Bu vositalar san'at va dizaynda yangiliklarni yaratishda foydali vositalardir.

Matn qismlarining tartib raqamini mavzular bilan moslang. Diqqat! 2 ta mavzu ortiqcha.

QISMLAR	MAVZULAR
I.	A) Mashhur SI texnologiyalari
II.	B) SI nima?
III.	D) Sining yaratilish tarixi
IV.	E) SI imkoniyatlari
	F) Ilk SI tizimlari
	G) Sining kelajagi

Matnning 1-qismida qo'llangan "mashinali o'rganish", "tabiiy tilni qayta ishlash" va "kompyuterda ko'rish" terminlarini izohlashga harakat qiling. Quyidagi vazifalar qaysi terminga aloqador ekanini aniqlang.

ChatGPT yoki boshqa chatbotlar foydalanuvchilar bilan jonli suhbatlashadi, savollariga javob beradi va muammolarni hal qiladi. Kompyuter tasvirdagi obyektlarni (masalan, mashina, inson, hayvon) aniqlab, ularning o'lchami, shakli va joylashuvini belgilaydi.

Haydovchisiz harakatlanuvchi avtomobillar atrof-muhitni kuzatib, yo'l harakati qoidalariga rioya qiladi. Foydalanuvchilarning internetdagi qiziqishlarini tahlil qilib, ularga mos reklama va kontentni ko'rsatadi. Google Translate yoki boshqa tarjima xizmatlari ma'lumotlar bazasidan o'rganib, aniqroq tarjima qilishni o'zlashtiradi. Tibbiy hujjatlarni tahlil qilish va ma'lumotni qayta ishlash orqali shifokorlarga yordam beradi. Yuzni tanish texnologiyalari aeroportlar, ofislar va boshqa joylarda xavfsizlik maqsadlarida keng qo'llanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Sun'iy idrok deganda nimani tushunasiz?
2. Sun'iy idrokning qanday imkoniyatlarini bilasiz?
3. O'zingiz sun'iy idrok xizmatlaridan foydalanib ko'rganmisiz? Qanday maqsadda?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Ai (Artificial Intelligence) terminiga nisbatan o'zbek tilidagi manbalarda "sun'iy intellekt", "sun'iy idrok", "sun'iy ong", "sun'iy aql" kabi nomlar ishlatilmoqda. Siz qay bir nomni afzal bilasiz? Balki, boshqa taklifingiz bordir. Bu boradagi fikrlaringizni yozib keling.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: "Nutqdagi g'alizlik"

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– mavzu doirasida berilgan matnlar mazmuni orqali milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg'ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;

– o'zining fuqarolik burchlarini bilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Gaplardan qaysi biri g'aliz tuzilgan?

1. Men ilova orqali ovqat buyurtma qildim.

2. Men ilova orqali taomga buyurtma berdim.

3. Men ilova orqali ovqat buyurtmasini tashkil qildim.

G'alizlik jumla tuzishda til birliklari (qo'shimcha, so'z, ibora, so'z birikmasi)ni xato qo'llashdan kelib chiqadi. Shuningdek, so'zlarni xato tartiblash, noo'rin takror, og'zaki nutqda urg'uni noto'g'ri qo'yish ham g'alizlikka sabab bo'ladi. Misollar:

1. Shevamizda bu so'z faol ishlatiladi gapida -in qo'shimchasi xato qo'llangan. Bir so'zda majhul nisbatning ikki qo'shimchasi kela olmaydi. Ishlatiladi emas, ishlatiladi; qo'llaniladi emas, qo'llanadi bo'lishi kerak.

2. Eski barcha kiyimlarimni berib yubordim gapida eski va barcha soʻzlarining oʻrni oʻzgarib qolgan. Aslida: Barcha eski kiyimlarimni berib yubordim.

3. Sobirtoshga qoqilib quladi gapida quladi emas, yiqildi ishlatilishi kerak. Qulash devor, daraxt, bino kabilarga nisbatan qoʻllanadi.

“Sunʼiy intellekt” matnida ajratib berilgan gaplardagi gʻalizlikni bartaraf qilib yozing.

Namuna

Bejizga “intellekt” deyilmaydi. - Bejiz “intellekt” deyilmaydi.

Sinonimlar (maʼnodoshlar) umumiy maʼnosiga koʻra birlik hosil qiladi, biroq nozik maʼno qirralari, qoʻllanish oʻrni bilan farq qiladi. Masalan, katta, yirik, ulkan, bahaybat, gigant soʻzlari bir umumiy maʼno atrofida birlashsa-da, doim ham birining oʻrniga boshqasini qoʻllab boʻlmaydi. Bahaybat deganda shunchaki “katta” emas, “juda ham katta” maʼnosi anglashiladi. Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma gapida esa katta soʻzini boshqa hech bir sinonimi bilan almashtirib boʻlmaydi. Bir soʻz oʻrniga uning sinonimini xato qoʻllash oqibatida gʻalizlik yuzaga keladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Gaplarda notoʻgʻri qoʻllangan soʻzni sinonimi bilan almashtirib yozing.

Dada, ertaga oʻrtoqlarim mendan hoi soʻrash uchun uyimizga tashrif buyurishar ekan.

Majlisda ibratli, sohibjamol gaplar aytili.

Elbek sud qarori bilan gunohsiz deb topildi va mahkamani tark etdi.

Qoʻylarning taomiga semirtiruvchi vosita qoʻshib berishayotgan ekan.

Ayb menda: uzr etishingizni soʻrayman.

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: Internetdan tengdoshlaringiz yaratgan robototexnika namunalariga oid maʼlumot toping va u haqida matn tuzing.

OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

47 listdan iborat ona tili fanidan 9-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**